

Aziza MUSOYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti, dotsent (Ph.D.),
E-mail: musoevab@uwec.edu
Tel.: +99897 612 89 15

BuxDU professori, p.f.d., Sh.Olimov taqrizi asosida

TA'LIMNI BOSHQARISH TIZIMLARI VA RAQAMLI KUTUBXONALARNING ILMIIY YOZUV KOMPETENSIYASINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI (AQSH MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalari, o'qituvchilari va tadqiqotchilari uchun muhim bo'lgan Ta'limni boshqarish tizimlaridan (LMS) biri Canvas platformasi va raqamli kutubxonalar AQSh misolida o'rganilgan. Ushbu turdagi tizimlar hamda raqamli kutubxonalarni O'zbekiston sharoitida joriy etish ta'lim sifatini oshirish bilan birga tadqiqot bilan shug'ullanish va ilmiy yozuv kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi. Maqolada ta'limni boshqarish tizimlari va raqamli kutubxonalarning AQSh oliy ta'lim tizimidagi ahamiyati tahlil qilingan va yurtimizda ham joriy etilishi maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan. Shuningdek, maqolada mazkur tizimlarning xususiyatlari va imkoniyatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ta'limni boshqarish tizimlari, raqamli kutubxona, tadqiqot, ilmiy yozuv kompetensiyasi, oliy ta'lim, raqamlashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar.

SIGNIFICANCE OF LEARNING MANAGEMENT SYSTEMS AND DIGITAL LIBRARIES IN ENHANCING SCIENTIFIC WRITING SKILLS (US CASE STUDY)

Annotation

This article explores one of the Learning Management Systems (LMS) which is the Canvas platform and digital libraries in higher education institutions, highlighting their significance for students, teachers, and researchers, using the United States as a case study. Implementing these systems and digital libraries in Uzbekistan will enhance the quality of education and boost research and scientific writing skills. This article delves into the significance of Learning management systems and digital libraries in the higher education system of the United States, emphasizing the potential for their implementation in our own country. The article also discusses the features and capabilities of these systems.

Key-words: Learning management systems, digital library, research, scientific writing competence, higher education, digitization, modern pedagogical technologies.

ЗНАЧЕНИЕ СИСТЕМ УПРАВЛЕНИЯ ОБУЧЕНИЕМ И ЦИФРОВЫХ БИБЛИОТЕК В ПОВЫШЕНИИ НАВЫКОВ НАУЧНОГО ПИСЬМА (НА ПРИМЕРЕ США)

Аннотация

В этой статье на примере США исследуется одна из систем управления обучением (LMS), а именно платформа Canvas и цифровые библиотеки в высших учебных заведениях, подчеркивая их значимость для студентов, преподавателей и исследователей. Внедрение этих систем и цифровых библиотек в Узбекистане повысит качество образования и навыки проведения исследований и написания научных статей. В этой статье рассматривается значение систем управления обучением и цифровых библиотек в системе высшего образования США, подчеркивая потенциал их внедрения в нашей стране. Также в статье рассматриваются особенности и возможности этих систем.

Ключевые слова: Системы управления обучением, электронная библиотека, исследования, компетенция научного письма, высшее образование, цифровизация, современные педагогические технологии.

Kirish. Hozirgi globallashtirish jarayonida ta'lim sifatini yanada oshirish va takomillashtirish har bir mamlakatning o'z oldiga qo'ygan vazifalardan biridir. Shunday ekan, jahon miqosida tan olingan va xorijiy tajribada sinab ko'rilgan zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish O'zbekistondagi ta'lim muassasalari uchun muhim hisoblanadi. Jahonning ko'plab mamlakatlarida foydalanilayotgan ta'limni boshqarish tizimi va raqamli kutubxonalar hozirda oliy ta'lim muassasalari talabalari, o'qituvchilari va tadqiqotchilari uchun eng zarur kompetensiyalar bilan oziqlantirmoqda.

Ayniqsa Covid-19 dan keyin jahon tajribasida raqamli texnologiyalarning o'rni yanada ortdi. Shuning uchun juda ko'plab ta'limni boshqarish tizimlari va raqamli texnologiyalar yanada takomillashdi va hozirda ulardan barcha talabalar, o'qituvchilar, tadqiqotchilar unumli foydalanmoqda. Bunday o'zgarishlar Covid-19 dan oldin ham bo'lishiga qaramasdan, dunyo miqosida an'anaviy ta'lim va kutubxonalarga bo'lgan talab va ehtiyoj maksimal darajada edi. Lekin o'tkan yillar davomida ta'limni raqamlashtirish jadallashib, zamonaviy ta'lim dasturlari, tizimlari va texnologiyalari butun dunyoni qamrab oldi. AQSh tajribasidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, ta'lim tizimidagi tub islohotlar tufayli hozirda barcha zamonaviy raqamli texnologiyalardan unumli foydalanish tendensiyasini ko'rish mumkin. Bu shundan dalolat beradiki, demak xuddi shunday tizim va texnologiyalardan foydalanish O'zbekistondagi barcha ta'lim tizimlarini tubdan o'zgarishiga va zamon bilan hamnafas tarzda rivojlanishimizga juda katta xizmat ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab ta'lim muassasalari onlayn platformalardan tobora ko'proq foydalanmoqda. Ilgari, an'anaviy joylarda o'rganish odatiy hol edi, ammo so'nggi yillarda yanada moslashuvchan o'qitish usullariga bo'lgan talab ortdi. Tadqiqotlarga ko'ra, hozirda yuzma-yuz ta'limdan onlayn ta'limga o'tish yanada jadallashdi [1]. Endilikda bilim almashish va ma'ruzalar o'qish uchun faqatgina haqiqiy sinflarga tayanish shart emas [2]. Natijada, butun dunyo bo'ylab ta'lim muassasalari raqamli sohada yuqori darajadagi xizmatlarni taqdim etishga e'tibor qaratmoqda.

Ta'limni boshqarish tizimlari hozirda nihoyatda ko'p bo'lib, biz mazkur maqolada Canvas platformasini tahlil qilamiz. Ma'lumotlarga ko'ra, ta'limni boshqarish tizimlaridan biri Canvas bulutga asoslangan texnologiyadan foydalangan holda o'qituvchilar va talabalar tomonidan kerakli materiallar va xizmatlarning uzluksiz integratsiyasini osonlashtiradi. Canvas - bu foydalanuvchilar uchun eng qulay, sozlanishi, ko'p qirrali va ishonchli o'rganish platformasi bo'lib, boshqa ta'limni boshqarish tizimlariga qaraganda tezroq va kengroq o'zlashtirishga olib keladi [3].

Mazkur ta'limni boshqarish tizimi Instructure, Inc. tomonidan ishlan chiqilgan bo'lib, u texnologiya orqali o'rganuvchilarning salohiyatini oshirish maqsadida Canvas, Gauge, Arc va Bridgeni ishlab chiqdi. Ushbu vositalar ta'lim tashkilotlariga interaktiv va onlayn ta'lim tadbirlarini osonlikcha loyihalash, yetkazib berish va nazorat qilish imkonini beradi [3].

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, o'qituvchilar onlayn ma'ruzalar, darslar va kurslarni taqdim etish, talabalar va tinglovchilar bilan muloqot qilish uchun mos onlayn platforma yoki ta'limni boshqarish tizimlarini (LMS) tanlashlari kerak. Hozirgi vaqtda YUNESKO tashkiloti 10 dan ortiq ta'limni boshqarish tizimlari (LMS) va 11 tagacha MOOC platformalarini tanlashni tavsiya qiladi [4].

Turli olimlar ta'limni boshqarish tizimlari haqida turlicha fikr bildiradilar. Masalan, D. Turnbull va boshqalar ta'limni boshqarish tizimini kurs mazmunini yaratish, tartibga solish va ko'rsatish uchun ishlatiladigan onlayn ta'lim tizimi sifatida tasvirlaydilar [5]. L. Reid esa uni jismoniy joylashuvdan qat'iy nazar o'rganuvchilarga ta'lim olish imkonini beruvchi kurslarni boshqarish platformasi sifatida qaraydi [1]. Zamonaviy ta'limni boshqarish tizimlari (LMS) o'zining turlari va xususiyatlariga ko'ra farqlanadi, ba'zilari bulutli hisoblashlardan foydalanadi va keng dasturlash tajribasini talab qilmaydi, boshqalari esa maxsus dasturlash qobiliyatlari va ma'lumotlar bazasi malakasini talab qiladigan mahalliy dasturiy ta'minotdir [6, 260].

Raqamli kutubxonalar ham ta'limni boshqarish tizimlari kabi masofadan boshqarish, masofadan turib foydalanish imkoniyatlarini beradi. Mazkur turdagi kutubxonalar an'anaviy kutubxonalardan tubdan farq qiladi, foydalanuvchilarga juda ko'plab imkoniyatlar va ilmiy yozish ko'nikmalarini individual tarzda o'stirishga beminnat xizmat ko'rsatadi.

Turli tadqiqotchilar raqamli kutubxonalarning ko'plab ta'riflarini berganlar. Ular foydalanuvchilarga kompyuter tarmoqlari orqali turli formatlarda yetkaziladigan va kutubxona loginlari orqali foydalanish mumkin bo'lgan, foydalanuvchilarning xavfsizligini ta'minlaydigan xizmatlardir. Bu xizmatlarga hujjatlarini onlayn yetkazib berish xizmatlaridan foydalanish, onlayn obuna va xaridlar, elektron kitoblar, elektron jurnallar, gazetalar va elektron hukumat nashrlari va boshqalar kiradi. Ushbu o'zgartirishlar foydalanuvchi tajribasini yaxshilaydi va bir nechta formatlarda xizmatlarni taklif qilish orqali tadqiqot va o'rganishga jalb qilishni rag'batlantiradi. Raqamli kutubxona xizmatlaridan foydalanish foydalanuvchilarga internetga ulanib, istalgan qurilmadan foydalangan holda istalgan masofadan va istalgan vaqtda resurslarni qulay tarzda qidirish va olish imkonini beradi [7].

So'nggi yillarda "aqli kutubxona" xizmatlari atamasi ham keng qo'llanila boshlandi. Aqli kutubxona xizmatlari va raqamli kutubxona xizmatlari bir-birining o'rnida ishlatilishi mumkin bo'lsa-da, ular alohida tushunchalardir. Sun'iy intellekt, mashinani o'rganish va internet kabi texnologik yutuqlarni yitish holida, aqli kutubxonalar kutubxona faoliyatini optimallashtiradi, jarayonlarni soddalashtiradi va foydalanuvchilarga moslashtirilgan takliflar bilan ta'minlaydi [8].

Hozirda barcha kutubxona foydalanuvchilari uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash juda muhimdir. Oxirgi yutuqlar kutubxonalar Bloglar, RSS, E-mail, Institutsional repozitariylar, SMS, Google Drive/Google Books, QR kodlar, Biometrik eshiklar registrlari, Kutubxona kiosklari, Virtual sayohatlar, yangi Mobil kitoblar haqida yangiliklarni yetkazish, Kutubxona portallari kabi turli vositalardan foydalanayotganini ko'rsatmoqda. Foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun 5G xizmatlari, marketing va reklama, elektron hujjatlar/elektron jurnallar va boshqalar ham aynan raqamli kutubxonalarning tarkibiy qismlaridan biridir [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada biz asosan qiyoylash, kuzatish va tahlil qilish metodlaridan unumli foydalangan holda hozirda dunyo tajribasida ko'p foydalanayotgan ta'limni boshqarish tizimlari va raqamli kutubxonalar haqida ma'lumotlar to'pladik. Shuningdek, turli mualliflarning ular haqidagi fikrlarini tahlil qilish davomida, ta'limni boshqarish tizimlari va raqamli kutubxonalarning o'zining nechoqlik muhimligi haqida bilib oldik.

Tadqiqot davomida biz asosan AQShning Wisconsin Eau Claire universitetida olib borilayotgan ishlar, ularning ta'limni boshqarish tizimlari va raqamli kutubxonalardan foydalanishini kuzatdik. Mazkur ta'lim muassasasi ta'limni boshqarishda asosan Canvas platformasidan foydalanadi. O'qituvchilar undan, ayniqsa, o'quvchilarning akademik yozish ko'nikmalarini oshirishda unumli foydalanadilar. O'qituvchilar ko'pincha g'oyalarni ishlab chiqish va uy vazifasini berish uchun muhokama panellaridan foydalanadilar, talabalar esa javob berishdan oldin tadqiqot qilishlari va izlanishlari talab qilinadi. Talabalar akademik yozish qobiliyatlarini oshiradilar va kelajakda tadqiqotda malakali bo'lishga tayyorlanishadi.

Shuning uchun ham ta'limni boshqarish tizimlarining yana bir muhim jihati talabalarining rivojlanishini nazorat qilishi va monitoring qilishidir. Bunga malakali topshiriqlar tizimidan foydalanish orqali erishish mumkin [10, 65]. Keng tarqalgan onlayn topshiriqlarga munozara taxtasi, imtihonlar, viktorinalar, vaziyatga asoslangan topshiriqlar, wikilar, portfoliyolar ishlab chiqish va boshqalar kiradi [6, 260]. Canvas esa foydalanuvchilarga viktorinalar, imtihonlar va munozaralarning ko'plab shakllarini yaratishga imkon beradi.

Tahlil va natijalar. Raqamli kutubxonalar tahlil qilinganda shu ma'lum bo'ldiki, mazkur turdagi kutubxonalarni joriy etish va xizmatlaridan foydalanish hozirgi paytda juda muhim, chunki ular foydalanuvchilarga ularning joylashuvi yoki jismoniy imkoniyatlaridan qat'iy nazar, kutubxona materiallariga oson foydalanishni taklif qiladi. Raqamli kutubxonalar xizmatlaridan foydalanish jismoniy joy, xodimlar va materiallarga bo'lgan ehtiyojni bartaraf etish orqali xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Shunga qaramay, raqamli kutubxona xizmatlari texnik to'siqlar, raqamli kirishdagi nomutanosiblik, moddiy materiallarning cheklanganligi, foydalanuvchi qoniqishi va tanlovi, maxfiylik va xavfsizlik haqidagi cheklovlar bilan birga keladi. Kutubxonalar uchun ushbu cheklovlarni hisobga olish va raqamli xizmatlarni yaratish va ishga tushirishda ularni hal qilishga ishonch hosil qilish muhimdir [11].

AQShning Wisconsin Eau Claire universitetida ham raqamli kutubxona xizmatidan foydalanish keng tarqalgan. Talabalar va o'qituvchilar universitet veb-sayti orqali McIntyre Library deb nomlanuvchi kutubxonaga kirishlari mumkin. Mazkur kutubxona keng ko'lamli xizmatlarni taklif etadi, jumladan kutubxona xaritalari, onlayn shakllar, kutubxona orqali qidirish platformasi va ma'lumotlar bazalari kabi tadqiqot vositalari, chat, elektron pochta, telefon va matn orqali yordam, kurs qo'llanmalari, maxsus to'plamlarni qo'llab-quvvatlash, kitob olish imkoniyatlari, uskunalarini tekshirish, kompyuterga kirish, chop etish va skanerlash xizmatlari, o'quv xonalari, shkaflar ijarasi va boshqalar [12].

Ular turli xil raqamli kutubxona xizmatlariga muhim havolalarni taklif etadilar, masalan, tanlangan to'plamlar, kutubxonalararo aloqa xizmati, raqamli to'plamlar, o'qituvchilar uchun qo'llanma, kutubxona qo'llanmalari, asosiy manbalar, oqimli videolar, elektron kitoblar va audiokitoblar, yangiliklar, Web of Science, ma'lumotlar bazalari va boshqalar. Foydalanuvchilar tadqiqot olib borishlari va turli nuqtai nazarlar va qiziqarli xizmatlardan cheksiz foydalanishlari va bilim olishlari mumkin [12].

Ta'limni boshqarish tizimlaridan biri Canvas tahlil qilinganda, unda turli imkoniyatlarning mavjudligini talaba va tadqiqotchilar uchun ilmiy yozuv qobiliyatlarini o'stirishiga olib kelishi ma'lum bo'ldi. Bunda o'qituvchilar asosan topshiriqlarni qo'yadilar, talabalar esa tadqiqot qilgan holda berilgan savollarga javob topadilar va boshqa tengdoshlari bilan o'zaro bahs-munozaraga kirishgan holda olingan bilimlarni mustahkamlaydilar. Canvas platformasining yana bir afzallik jihatlardan biri unda boshqa ta'lim platformalaridan ham unumli foydalanish imkoniyati mavjud, masalan, Jam board, Flip Grid, Turnitin, Ed puzzle va

boshqa dasturlardan foydalanish mumkin. Kurs materialini yaxshilashning usullaridan biri Canvas Commonsdan kurslar, taqdimotlar, veb-saytlar va boshqa resurslarni birlashtirishdir [13].

Canvas ikkita noyob vositani taqdim etadi: Syllabus va Modullar. Bu birinchi tanlov turli topshiriqlar, baholar va kalendarlar bilan muammosiz birlashtirish uchun yaratilgan. O'qituvchilar interaktiv funktsiyalardan foydalangan holda modullar kabi muhim komponentlarga oddiygina ulanishlari mumkin. Kurs boshida talabalarga dars jadvallari, o'quv rejasi va muddatlari taqdim etiladi, bu esa o'qishni yanada samarali tashkil etish imkonini beradi [13].

Shunday ekan, onlayn ta'lim resurslari o'qituvchilar, professorlar va universitet talabalarida tadqiqot ko'nikmalarini oshirish va tadqiqot qobiliyatini rivojlantirish uchun juda muhimdir [14]. Sababi, bunda talaba ko'proq tadqiqot qilish bilan shug'ullanadi. Bizdagi Moodle platformasidan farqli o'laroq, ham o'qituvchi va ham talabaga ko'plab imkoniyatlarni yaratadi. Bunday yondashuv esa talabning o'z ustida tinimsiz ishlashiga hamda raqamli kutubxonalarga bo'lgan talab va ehtiyojni ham oshishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash joizki, zamonaviy ta'limni boshqarish tizimlari va raqamli kutubxonalardan foydalanish hozirgi vaqtda o'sib kelayotgan yosh avlodga yanada chuqur bilim berish uchun juda muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada alohida urg'u berilgan Canvas dasturining asosiy maqsadi talabalarning akademik yozish qobiliyatini oshirish uchun bosqichma-bosqich usulni taqdim etishdir. Bunda universitet talabalarini, o'qituvchilari va tadqiqotchilarining ilmiy kompetensiyasini oshirish uchun albatta raqamli kutubxonlarning o'rni beqiyos. Taklif qilingan ushbu turdagi kutubxonlarni tashkil etishdan asosiy maqsad O'zbekistonda barcha akademik yo'nalishlar bo'yicha ta'limni rivojlantirishdan iborat. O'zbekiston universitetlardagi raqamli kutubxonalar mukammal tadqiqotlar olib borishga va barcha sohalarda tadqiqotlarni rivojlantirishga zamin yaratadi. Shunday ekan, zamonaviy ta'limni boshqarish tizimlari hamda raqamli kutubxonlarni yurtimizning har bir oliy ta'limi qoshida tashkil etish tadqiqotchilar, talabalar va o'qituvchilarni zarur ko'nikma va bilimlar bilan ta'minlashga beqiyos hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR

1. Reid, L. (2019). Learning Management Systems: The Game Changer for Traditional Teaching and Learning at Adult and Higher Education Institutions. *Global Journal of Human-Social Science: Linguistics & Education* 19 (2), 1-14.
2. Sims, L. (2021). Online Learning Equipment. *Effective Digital Learning*, 9-17. https://doi.org/10.1007/978-1-4842-6864-3_2
3. Canvas Used by Majority of the Top 25 Online Bachelor's Degree Programs Ranked by U.S. News World Report: Four of the top five online higher education programs use Canvas as their learning management system, PR Newswire, 2018.
4. UNESCO (2021). Distance learning solutions. [Online]. Available: <https://en.unesco.org/covid19/educationresponse/solutions>
5. Turnbull, D., Ritesh Ch., Jo L. (2019). Learning Management Systems: An Overview. *Encyclopedia of Education and Information Technologies*. Springer Nature. https://doi.org/10.1007/978-3-319-60013-0_248-1
6. Fuster, B. (2021). 9 Common Types of Assignments in Online Courses.
7. Ram, B., & Singh, K. K. (2020). Innovative library services in mobile technology: A recent approach. *International Journal of Information Dissemination and Technology*, 10(4), 192-194.
8. Mercy, et al., (2023). Deployment of Smart Library Services in University Libraries in the Delta State in Nigeria During the Post Covid – 19 Era, *Zambia Journal of Library & Information Science*, Vol. 7, No. 2, pp. 13-18.
9. Tom-George et al., (2020). Digital Library Services for Sustainable University Education, *International Journal of Innovative Education Research* 8(3): pp. 128-135.
10. Mirzaee, A.R., Shabaninia, F. (2020). Review of E-Learning Modern Systems. *Interdisciplinary Journal of Virtual Learning in Medical Sciences* 4(2), 62-74.
11. Kumar, A., Ram, B. (2023). Application and significance of web-based library services, *International Research Journal of Modernization in Engineering Technology and Science*, Volume:05/Issue:05, 3397-3400.
12. Information about the McIntyre Library at University of Wisconsin Eau Claire from website. Available: <https://library.uwec.edu/using-the-library/services/>
13. Khatser et al., (2022) Online Learning Through LMSs: Comparative Assessment of Canvas and Moodle. <https://doi.org/10.3991/ijet.v17i12.30999>
14. Musoeva, A. The importance of academic writing in improving students' research writing. *International scientific and practical online conference "Modernity of humanitarian sciences teaching scientific directions"*, 218-221 pp.